

INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TARBIYALANUVCHILARNI
INTELLEKTUAL QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISHDA ULARNING YOSHIGA XOS
BO'LGAN PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Altibayeva Gulbaxor Majitovna

Termiz davlat universitetining Pedagogika instituti, o'qituvchi

Annotatsiya: *Innovatsion texnologiyalar asosida tarbiyalanuvchilarni intellektual qobiliyatini shakllantirishda ularning yoshiga xos bo'lgan psixologik va pedagogik xususiyatlari haqida fikrlar bildirilgan.*

Kalit so'zlar: *boshqarish, rejalashtirish, tashkilot, faoliyat, imkoniyat, xususiy turkumlar, tashkil etish, rahbarlik qilish, nazorat qilish, samaradorlik, ta'lim sifati, bilimdonlik, xabardorlik.*

Rivojlanib borayotgan mamlakatimizda yosh avlodning ta'lim – tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilmoqda, ularning yetuk bo'lib ulg'ayishlari, zamonaviy va mumtoz ilm-fanning sir – asrorlarini mukammal egallashlari hamda barkamollik xususiyatlarini o'zlarida mujassam eta olishlari uchun keng imkoniyatlar eshigi ochib berilgan. Xususan, muxtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: “Bizni hamisha o'ylantirib keladigan muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liqdir. Atrofimizda yuz berayotgan o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks – sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin”. Darhaqiqat, yoshlar har bir mamlakatning ertangi kunini belgilovchi, buyuk kelajakning poydevorini shakllantiruvchi avlodlar hisoblanadi. Zero, millatimizning faxri bo'lmish Abdulla Avloniy tarbiyani shunday tushuntiradi: “Tarbiya, pedagogika, ya'ni bola tarbiyasining fani demakdur... Bolaning salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak, tanini pok tutmak, yosh vaqtdan maslakini tuzatmak, yaxshi xulqlarni o'rgatmak, yomon xulqlardan asrab o'sdurmakdur”.

Albatta, yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalash maktabgacha ta'lim jarayonidan boshlanadi. Shu boisdan ham, prezidentimiz tashabbuslari bilan 2017-yil 4-yanvarda “2017-2021-yillarda Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to'g'risida” qaror qabul qilindi. Ushbu qarorda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, ta'lim – tarbiya

jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun psixologik jihatdan tarbiyalash va shart-sharoitlar yaratish maqsadi ko'zda tutilgan. Ma'lumki, maktabning bola shaxsiga qo'yadigan asosiy talablaridan yana biri psixologik tayyorgarlikdir. Bolaning psixologik tayyorligi uning jamiyatdagi ijtimoiy mavqaini o'zgarishi va kichik maktab yosh davridagi bolalar o'quv faoliyatining o'ziga xosligi bilan uzviy bog'lik.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, maktabda psixologik aniq bir mazmun doimiy hisoblanmaydi, balki u doimo o'zgarib boyib boradi. Psixologik tayyorlikning tarkibiy jixatlari: intellektual (aqliy), ma'naviy va irodaviy tayyorgarlikdan iboratdir.

Aksariyat hollarda bolaning aqliy rivojlanganlik darajasi haqida gapirilganda uning so'z boyligi zaxirasi bilan aniqlanadigan aqliy bilimlari miqdoriga ko'prok e'tibor beriladi. Ota-ona, xatto ayrim tarbiyachilar ham bola kanchalik ko'p bilsa, u shunchalik rivojlangan bo'ladi, deb o'ylaydilar. Aslida esa unday emas, fan-texnika, ommaviy axborot vositalarining keng tarqalganligi tufayli bugungi kun bolalari go'yo ma'lumotlar ummonida suzib yurgandek bo'lmoqdalar. Bu esa ulardagi so'z boylıklarining keskin o'sishiga asos bo'lmokda, lekin bu ularning tafakkuri ham shunday jadallikda rivojlanayapti degan gap emas.

5-7 yosh bolaning maktabga intellektual (aqliy) tayyorligining psixologik xususiyatlaridan biri bu ulardagi obrazli dunyoqarashining oliy darajada rivojlanganligidir. Bularga tayangan xolda bola atrof-muxitdagi narsa-xodisalar o'rtasidagi eng muhim xususiyatlarni, munosabatlarni farqlay olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu o'rinda bolalar chizmalı tasvirlarni shunchaki tushunibgina qolmay, balki ulardan muvaffaqiyatli foydalana oladigan bo'ladilar.

Maktabgacha yosh davridayok bola kichik maktab yosh davrida yetakchi faoliyat turi bo'ladigan–o'quv faoliyatiga tayyorlangan bo'lishi lozim. Bunda bolada ma'lum bir tegishli masalalarning shakllangan bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Bunday malakalarning asosiy xususiyatlaridan biri bolaning o'quv topshirig'ini ajratib va faoliyatni mustaqil maqsadga aylantira olishidir. Yuqorida to'xtalib o'tganimiz intellektual tayyorlik bolaning maktabda muvofaqiyatli o'qib ketishi uchun yagona zamin emas.

Demak, bola zarur bilim, ko'nikma va ko'nikmalar zahirasiga ega bo'lsa, unda intellektual rivojlanganlik darajasi ham yuqori bo'lsa-yu o'quvchilikning ijtimoiy holatiga shaxsan tayyor bo'lmasa, maktabda o'qib ketishi qiyin kechadi. Agar o'qituvchi yoki ota-ona uni o'qishga qiziktira olmasalar, o'quv

vazifalarini zo'rama-zo'raki, sifatsiz, qo'l uchida bajaradilar. Bunday xolatlarda zarur natijalarga erishish qiyin bo'ladi.

Shuningdek, bu yoshda maktabga borishni xoxlamaydigan, qaysar bolalar ham uchrab turadi. 5-7 yoshli bolaning maktabga borishdan bosh tortishi asosan uni tarbiyalashda ota-onalar tomonidan yo'l qo'yilgan xatoning oqibati natijasi xisoblanadi. Ayrim ota-onalarda maktabgacha yosh davridagi bolani maktab bilan ko'rqitish hollari ham kuzatiladi.

- To'g'ri gapira olmasang, qanday maktabga chiqasan?

- Yozish, o'qish, sanashni bilmaysan-ku, sani maktabga qabul qilmaydi.

- Maktabga borsang, o'rtoqlaringga bu qiliqlaring yoqmiaydi!

- San bilmaysan, hech narsani bilmaysan, maktabga borsang uyali qolasan kabi ta'na-dashnomlar, bolada maktabdan qo'rqish, undan xavfsirashning shakillanishiga ham asos bo'lishi mumkin. Bunday yondashuvlar bolani maktabdan qo'rqishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun maktabga borgan bolalarning maktabga bo'lgan munosabatini o'zgartirish, ularda o'ziga nisbatan ishonch uyg'otish uchun xaddan ziyod kuch, vaqt, mexnat, sabr-toqat, chidam, e'tibor zarur bo'ladi.

Ota-onalar har bir bola ruhiy rivojlanishida o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi va bu xususiyatlar ularning u yoki bu faoliyat turini egallashida namoyon bo'lishini yodda tutishlari lozim. Ta'lim jarayonida bola imkoniyatlarining namoyon bo'lishi ma'lum darajada nasliy omillar bilan ham bog'liqdir. Bolalar o'z temperament xususiyatlariga ko'ra ham bir-birlaridan ajralib turadilar.

Xushchaqchaq, sergap, quvnoq, hayotning o'zgaruvchan sharoitlariga tez moslasha oladigan bolalar – sangvinnik temperamentga mansub bo'ladilar.

Ko'pincha noxush kayfiyatda yuradigan, ta'sirchan, kamgap, sust bolalar – melanxolik temperamentga kiradilar.

Xotirjam, befarq, kamharakat, nutqi sust bolalar – flegmatiklardir.

Jaxldor, betoqat, serzarda, xarakatchan bolalar – xolerik xisoblanadilar.

Bolalar kattalarning yordamiga muxtoj bo'lishiga qarab ham bir-birlaridan farq qiladilar. Ba'zi bolalar biror hatti-harakatni bajarishni bir necha marta ko'rsatish, tushuntirish, ketidan ergashtirish kerak. Boshqa bolalarga esa bajariladigan ish bir marotaba ko'rsatilsa yetarli bo'ladi. Shunday bolalar ham borki, ular berilgan vazifani mustakil bajaradilar.

Bolalar o'zlarini qiziquvchanlik, aqliy faolliklariga qarab ham bir-birlaridan ajralib turadilar. Ba'zi bolalar ko'p savol beradilar va harakatchan bo'ladilar, ba'zi bolalarni esa xech narsa qiziqitirmaydi.

Ota-onalar bolalaridagi o'ziga xosliklarni qanchalik chuqur bilsalar, ularga o'rgatishni muvoffaqiyatli tashkil qila oladilar.

Bolalarda o'ziga xosliklarni mehnatsevarlik, sinchkovlik, ziyraklik, ishchanlik, mas'uliyatlilik kabi axloqiy sifatlar orqali qaror toptirishda tarbiyachining o'zni beqiyos sanaladi. Chunki, bunday mas'uliyatli vazifani ulartomonidan egallanishi tarbiyalanuvchilarni har tomonlama rivojlanishiga va maktab faoliyatiga sifatli tayrlanishiga keng imkon beradi. .

Ma'lumki, ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonini jadal rivojlantirish ehtiyoji bilan uni amalga oshirishga tarbiyachilarning tayyor emasligi, zamonaviy bilimlar bilan yetarli qurollanmaganligi orasidagi ziddiyat innovatsion texnologiyalardan foydalanishga ehtiyojning mavjudligini keltirib chiqarmoqda.

Haqiqatdan ham jamiyatda "Innovatsiya" tushunchasi keng va tor ma'noda ishlatiladi. Demak, innovatsiya – biror bir yangi ijtimoiy ehtiyojni yaxshiroq qondirish uchun yangi ilmiy, amaliy vosita, ya'ni yangilik yaratish, tarqatish va qo'llashni o'z tarkibiga oladigan kompleks jarayon sifatida tadqiq etiladi. Shuningdek, "Innovatsiya" biror bir jamoa yoki ta'lim jarayonini takomillashtirish uchun kiritilayotgan va bu innovatsiya sub'ekti tomonidan yangilik deb qabul qilingan bo'lib ta'lim jarayoni ishtirokchilarini har tomonlamaintelektual rivojlanishini ta'minlash maqsadida yangi vosita, uslub, yondashuvlar asosida tadqiq etiladi.

Innovatsion texnologiyani mazmuni va mohiyati bugungi kungacha olimlar tomonidan xilma-xil ta'riflari ishlab chiqilgan bo'lib, ularni tahlil etish asosida biz o'zimizning tadqiqot yo'nalishimizni belgilab olishga zaruriyat sezdik.

S.Turg'unovning fikricha, innovatsiya – maqsadga yo'naltirilgan o'zgartirishlar bo'lib, ma'lum bir ijtimoiy birlikka – muassasa, uyushma, jamoa va guruhlarga yangi, nisbatan barqaror bo'lgan elementlarni, umumiy holda halqning ma'naviy-madaniy munosabatlari va mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan uzviy bog'liq bo'lgan yangiliklarni kiritishdir².

Malaka oshirish kurslarida tarix o'qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlashga doir ilmiy-tadqiqot ishini amalga oshirgan M.Jumaniyozovaning ta'kidlashicha, innovatsiya – rivojlangan texnologik jarayonning takomillashgan mahsuloti ko'rinishida namoyon bo'ladigan ijodiy mehnatning natijasi. U amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo'lib, ijtimoiy-madaniy ob'ekt sifatlarini yaxshilashga yo'naltirilgan ijtimoiy sub'ektlarning

² Turg'unov S.T. Ta'lim muassasalarini boshqarishda innovatsion faoliyat. // j.Uzluksiz ta'lim. – T., 2006. - №4. – B.4.

harakat tizimi, ayni vaqtda u boshqariluvchi va nazorat qilinuvchi o'zgarishlar mexanizmi bo'lib hisoblanadi³.

N.Mamadov fikricha innovatsiya – bu boshqaruv ob'ektini o'zgartirish hamda yuqori darajadagi ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnik samaralarni qo'lga kiritish maqsadida muayyan sohalarga yangilikni tatbiq qilishning yakuniy natijasi ekanligini qayd etib o'tadi⁴.

Sh.Zufarov “innovatsiya” tushunchasiga quyidagicha ta'rif berib o'tgan: “Innovatsiya tushunchasi mazmunan “yangi”, “yangilik” tushunchalarining aynan o'zi emas. Istalgan yangilik, qachonki, amaliy faoliyatda o'zining keng qamrovli samarasini bersa va keng ko'lamli ehtiyoj ob'ektiga aylansagina, tom ma'nodagi innovatsiya deb atash mumkin bo'ladi”.

Ma'lumki, innovatsiyalar texnologiya, iqtisodiyot, savdo-sotiq, ijtimoiy tizim bilan aloqadorlikda xilma-xil ko'rinishlarda namoyon bo'ladi: pedagogik, iqtisodiy, tashkiliy, texnologik va boshqalar. Yoki yangiliklarni qo'llanilish sohasiga qarab texnik, tashkiliy, metodik, iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy kabi guruhlarga ajraladi. Innovatsiyalarning xilma-xil turlari orasida pedagogik innovatsiyalar alohida ahamiyatga ega bo'lib, tarbiyalanuvchilarni intellektual qobiliyatini shakllantirishda muhim vositasi sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda qabul qilingan “2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ 2707 sonli qarori.

2. Rahimova R. Tarbiyachiga ming bir maslahat. //Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. - Toshkent , 2007.

3. ГМ Алтибаева.Особенности организации взаимодействия дошкольного образовательного учреждения семьями воспитанников. Вестник современной науки 19-22

4. G Altibaeva .Processes Of Formation intellectual Abilities of Preschool Teachers Through innovative Technologies.Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences 3 18-21

5. K.A. Xamrayevna. To The Question on Neuropedagogic Possibilities of Formation of Creative Activity at Children of the Senior

³ Жуманиёзова М. Инновацион фаолият – таълим сифатининг кафолатидир. // j.Uzluksiz ta'lim. – Т., 2004 - №6 – Б.89.

⁴ Мамадов Н.С. Умумий таълим мактабларини инновацион бошқариш: Педагогика фанлари номзоди. ... дисс. – Т., 2009. – Б.17.

Preschool Age // International Journal of Progressive Sciences and Technologies (IJPSAT). - General Rublik licens. – Spanish, 2019. - Vol. 16. - N 2. - 2019, - P. 265-267.

6. Г.У Холбоева, Р.Ж Окбоева. Формирование трудового воспитания у детей дошкольного возраста.- Евразийский научный журнал, 2018

7. Г.У Холбоева. [Болалариини мактаб таълимига психологик тайёргарлиги](#). - Новости образования: исследование в XXI веке, 2022

6.К.Х. Аллабердиева. Ижодий фаолликни шакллантиришга йўналтирилган интеграциялашган таълим // Новости образования: исследование в XXI веке 1 (5), 419-423

7.К. Allaberdieva. The Main Neuropedagogic Possibilities Of Formation At Children Of Senior Preschool Age Of Creative Activity // European Journal Of Research And Reflection In Educational Sciences Vol 7,

8. Abdumajitova S. A. PRIORITY OF THE PERSON-CENTERED EDUCATIONAL MODEL IN PRESCHOOL EDUCATION //International Academic Research Journal Impact Factor 7.4. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – С. 53-57.

9. Abduqasimovna, A. S. (2022). DIFFERENT VIEWS OF EASTERN THINKERS AND PEDAGOGUES-SCIENTISTS ABOUT THE CHILD AND HIS EDUCATION. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(5), 348-352.

10. Abduqasimovna, A. S. (2022). ATTENTION TO THE EDUCATION OF CHILDREN OF PRESCHOOL AGE AND REFORMS IN THE FIELD OF PRESCHOOL EDUCATION. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(5), 342-347.

11. Абдумажитова, С. А. (2019). ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ У ДЕТЕЙ ЧУВСТВА ВРЕМЕНИ КАК ЭСТЕТИЧЕСКОГО ФЕНОМЕНА В ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ И МЕТОДИЧЕСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ. Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук, (3), 81-83.

12. Abduqasimovna, A. S. (2022). <https://doi.org/10.5281/zenodo.6508403>. Results of National Scientific Research International Journal, 1(1), 265-269.